



UDK:4=20:415.412.51:413.164(045)

*Nargiza SUYAROVA,*  
*Qarshi davlat universiteti Fakultetlararo ingliz tili kafedrasida dotsenti*  
*E-mail: suyarovnargiza578@gmail*

*Filologiya fanlari doktori, professor B.Mengliyev taqrizi asosida*

## LINGUISTIC CLASSIFICATION OF METAPHORIC TERMS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation

This article elucidates the linguistic classification of metaphoric terms in English and Uzbek, emphasizing the importance of developing an objective scientific interpretation of the object to ensure proper classification, which plays a crucial role in distinguishing its stable qualities from unstable and transient aspects. This interpretation is explored through linguistic evidence within the scope of both languages.

**Key words:** Classification, metaphor, lexeme, element, language and speech, ontological, metaphoric term, lexicalized metaphor.

## ЛИНГВИСТИЧЕСКАЯ КЛАССИФИКАЦИЯ МЕТАФОРИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

В данной статье освещается лингвистическая классификация метафорических терминов в английском и узбекском языках. Подчеркивается важность разработки объективной научной интерпретации объекта для правильной классификации, что играет ключевую роль в различении его устойчивых качеств от нестабильных и преходящих аспектов. Эта интерпретация исследуется через лингвистические доказательства в рамках обоих языков.

**Ключевые слова:** Классификация, метафора, лексема, элемент, язык и речь, онтологический, метафорический термин, лексикализованная метафора.

## INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA METAFORIK TERMINLARNING LISONIY TASNIFI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz va o‘zbek tillarida metaforik terminlarning lisoniy tasnifi yoritib berilgan bo‘lib, tasnifning to‘g‘ri amalga oshirilishi uchun obyektning xolis ilmiy talqinini ishlab chiqish, bu esa uning barqaror sifatlarini beqaror va o‘tkinchi jihatlaridan farqlashda asosiy rol o‘ynashi ikki til doirasidagi lisoniy dalillar vositasida talqin etilgan.

**Kalit so‘zlar:** Tasnif, metafora, leksema, unsur, lison va nutq, ontologik, metaforik termin, lisoniylashgan metafora.

**Kirish.** Tasnif narsa va hodisalarni barqaror belgilari asosida tartiblash yo‘li bilan guruhlariga ajratish demakdir. Tasnifning chuqur ilmiy asoslanganligi, bunda narsa va hodisalarning barqaror belgilariga tayanish, zohiriy alomatlar bilan o‘ralashib qolmaslik tadqiqotchini to‘g‘ri yo‘lga boshlaydi, uning faoliyatini ilmiy “aldamchilik” illatidan xalos qiladi, ilmiy jamoatchilikni chalg‘itmaydi. Tasnif sistema unsurlarining sistemaviy munosabatlarini to‘g‘ri ochish yo‘lidan borar ekan, ilmiy xulosalarning barqarorligi va yashovchanligi ta‘minlanadi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Falsafiy va mantiqqa doir adabiyotlarda, maxsus manbalarda tasnif quyidagi tamoyillarga asoslanishi lozimligi ta‘kidlanadi:

- 1) tasniflangan bo‘laklar hajmi tasniflanayotgan butunlik hajmiga teng bo‘lishi;
- 2) tasnif bir asosda amalga oshirilishi;
- 3) tasnif (tasniflangan) guruhlari bir-birini inkor qilishi;
- 4) tasnif uzluksiz bo‘lishi, ya‘ni unda “sakrash” bo‘lmasligi lozim.

Har qanday borliq hodisasi serqirra bo‘lib, ularning bu qirralari zohiriy yoki botiniy (ichki, barqaror) bo‘lishi mumkin. Shuningdek, botiniy jihatning o‘zi ham muayyan nuqtai nazar yoki ilmiy maqsad, gipoteza uchun ahamiyatli yoki ahamiyatsiz bo‘lishi mumkin. Bu esa tasnif asosini, belgisini to‘g‘ri tanlashni taqozo qiladi. Mualliflar jamoasining fikricha, “tasnif asosini tanlash muhim. Chunki biror tizimni turli asosda tasnif qilish har xil natija beradi. Masalan, undosh fonemani ovoz va shovqinning ishtirokiga ko‘ra jarangli va jarangsizga, hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra lab, til, bo‘g‘iz undoshiga ajratish mumkin. Lisoniy tasnif tasniflanayotgan birliklarning ichki, substansial belgilariga ko‘ra yoki muhim bo‘lmagan zohiriy xossasiga asoslangan bo‘lishi mumkin. Shu boisdan tabiiy yoki yordamchi tasnif farqlanadi. Tabiiy tasnifda lisoniy birlikning ichki, barqaror belgilariga asoslaniladi. Yordamchi tasnifda birlikning ontologik bo‘lmagan xossasini bildiruvchi belgilariga tayaniladi. Masalan, “so‘zlarning

bo‘g‘in sonlariga ko‘ra tasnifi (bir bo‘g‘inli, ikki bo‘g‘inli va ko‘p bo‘g‘inli so‘zlar)”, “unlilarning tilning gorizontol holatiga ko‘ra tasnifi va h.”

Biz quyidagi antropotsentrik metaforani tasniflashda ana shu tamoyillarga og‘ishmay amal qilishga harakat qilamiz.

Ingliz va o‘zbek tillarida metaforik terminlar o‘zining serqirraligi va murakkab tabiati bilan xarakterlanadi. Unda, avvalo, lisoniy va nolisoniy omillar qorishgan holda namoyon bo‘ladi. Shu ma‘noda tasnifni lisoniy va nolisoniy omillarga ajratish asosida boshlash ma‘quldir.

Ingliz va o‘zbek tillarida metaforik terminlarning lisoniy tasnifi, avvalo, tilning dixotomik bo‘linishiga tayanadi. Til lison va nutqdan iborat bo‘lganligi kabi metaforalar ham lisoniy yoki nutqiyiligi bilan farqlanadi.

Ma‘lumki, lison va nutqni farqlash substansial tilshunoslikning asosiy tamoyillaridan biridir. Unga ko‘ra, “til (lison – G.N.) deyilganda ma‘lum bir jamiyatning barcha a‘zolari uchun avvaldan (oldingi avlodlar tomonidan) tayyor holga keltirib qo‘yilgan, hamma uchun umumiy, ya‘ni qabul qilinishi va qo‘llanishi majburiy, fikrni shakllantirish, ifodalash va boshqa maqsadlar uchun xizmat etadigan birliklar hamda bu birliklarning o‘zaro birikishi va bog‘lanishini belgilovchi qonun-qoidalar yig‘indisi tushuniladi. Tilning bunday talqinidan ko‘rinib turibdiki, u inson ongidagi psixofizik hodisa bo‘lib, o‘zida umumiylik, mohiyat, imkoniyat kabi sifatlarni mujassamlantirgan. Til o‘zining bu sifatlarni konkret formalarda – xususiy hodisa va voqeliklar sifatida, rang-barang miqdoriy (fizik, material) ko‘rinishlarda gavdalantiradi”. Lison va nutq o‘zaro dialektik bog‘langan. “Til bilan nutq orasidagi munosabatga dialektik nuqtai nazardan yondashilgandagina u haqdagi tasavvur, bilimlarimiz to‘laqonli bo‘ladi, mukammallashadi. Haqiqatan ham, til va nutq dixotomiyasiga dialektik materializmning umumiylik va xususiylik, mohiyat va hodisa, imkoniyat va voqelik, sabab va natija kategoriyalari nuqtai nazardan

yondashsak, tilga umumiylik, mohiyat, imkoniyat, sabab kabi bevosita ko'rib-bilib bo'lmaydigan tomonlarning, nutqqa esa xususiylik, hodisa, voqelik, natija kabi tomonlarning aloqador ekanligini ko'ramiz. Shuning uchun ham biz til va nutq hodisalarini dialektik materializmning yuqorida eslatilgan kategoriyalari asosida o'rganmog'imiz lozim." Nutqiy hodisalar lisonning voqelanishi bo'lib, bu voqelanishda hodisa mansub umumiylik boshqa umumiyliklar zarralari bilan qorishgan holda yuzaga chiqadi. Boshqa umumiyliklar zarralari lisonga xos ham, xos bo'lmashligi ham mumkin. "Muayyan daraxt xususiylik sifatida mavjud ekan, unda turli substansiya (mohiyatlar) zarralari daraxt umumiyligi zarrasi bilan qorishgan holda namoyon bo'ladi. Bular rang, xlorofill, suv, umuman, turli xil organik va noorganik moddalar bo'lib, daraxt substansiyasiga mansub tegishli xususiylikni boshqa "begona" xususiyliklardan ajratib olish shunchalik mushkulki, uni tasavvur qilib ham bo'lmaydi." Shunday qilib, nutq lisonning meyor "elag"idan o'tgan muayyan moddiy (yozma, og'zaki, tasviriy/imo-ishora, signal, va h.k.) shakllaridan birida voqelanishi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Lison nutqda voqelanar ekan, uning g'ayrioddiy qo'llanilishi bir qarashda lisonga daxlsizdek tuyuladi. Masalan, sememaning nutqiy metaforik qo'llanishida shu holat ko'zga tashlanadi. Lekin bu g'ayrioddiylik vaqt o'tishi bilan odatga aylanib boradi va qo'llanish tez-tez ro'y berib turadi. Natijada okkazonal nutqiy ma'no uzuallashadi.

Nutqiy hodisalarning, xususan, nutqiy ma'nolarning lisoniylashuvi tadrijiy xususiyatga ega. Lisoniylashuv bir necha bosqichda kechadi. Nutqiy ma'noning lisoniylashishini quyidagicha tartiblash mumkin:

- 1) nutqiy ma'no;
- 2) lisoniylashayotgan ma'no;
- 3) lisoniylashgan ma'no.

Nutqiy ma'no ijtimoiylashmagan, o'zida okkazonlikni saqlab turgan, matn orqali anglashiladigan ma'nodir. Masalan, mushuk so'zi odamlarga nisbatan qo'llangan "pismiqlik", "ichidan pishgan" ma'nosiga ega bo'lib, hamma ham uni shu ma'noda tushunavermaydi va bunday qo'llanishdagi ma'noni izohlashda qarashlar turlicha bo'lishi mumkin. Ko'pchilik tomonidan e'tirof etilmaganligi bois ular lug'atlardan o'rin berilmagan. Biz yuqorida sanagan qator leksemalar (ayiq, ilon, mushuk sigir, buqa, fil) ning metaforik hosila ma'nolari nutqimizda uchrab turadi. Masalan, ko'pol kishiga nisbatan ayiq so'zini, befarosat kishiga nisbatan ho'kiz so'zini, o'ta mug'ombir kishiga nisbatan ilon, qilmishi odamlarga yomonlikdan iborat bo'lgan kishilarga nisbatan chayon, ayol kishiga nisbatan tovuq, erkak kishiga nisbatan qobon, arlon so'zlarini ishlatish hollari uchrab turishi fikrimizning dalilidir: 1. Ilon bolasi ilon, chayon bolasi chayon. 2. Dardi yo'q kesak, ishq yo'q eshak. 3. Bundan ko'ra go'ng titganing yaxshi emasmi, qari tovuq! 4. Sizlarga nima kerak, jo'jalarim? Bunday metaforik ma'nolarni tilshunoslar lisoniy sathda ko'rishmaganligi uchun nutqiy, badiiy metafora sifatida baholaydilar.

Lisoniylashayotgan metaforik ma'nolarda lisonga intilish miqdoriy o'zgarishlari meyor bo'g'ini atrofida bo'lib, ularni goh lug'atlar "ilg'aydi", goh nutqiy ma'no sifatida e'tibordan chetda qoladi. Masalan, pari, farishta, oy kabi so'zlarning metaforik ma'nolari shunday ma'nolar tipidandir. Uchinchi tip hosila ma'nolar sof lisoniy mohiyat kasb etgan ma'nolar bilan qo'llanilishi nutq sharoitiga bevosita bog'liq bo'lgan hamda maxsus sintagmatik qurshovlarda namoyon bo'luvchi sof nutqiy ma'nolar orasidagi vaziyatni egallaydi va ularni shartli ravishda lisoniylashmagan hosila ma'nolar sifatida berish ma'qul. [ish] leksemasining "mehnat, yumush" ma'nosi bosh ma'no bo'lsa, "lavozim, xizmat" ma'nosi lisoniylashayotgan ma'no sifatida qaralishi mumkin.

Lisoniylashgan metaforik ma'nolar barqarorligi, ijtimoiylashganligi, lug'atlardan o'rin olganligi bilan xarakterlanadi. Yuqorida biz izohli lug'atlardan tadqiqotga olib kirgan ma'nolar shunday ma'nolarga misol bo'la oladi. Nutqiy ma'no hosila ma'no lisoniylashuvining ilk bosqichida bo'ladi. "Nutqda shunday so'zlar kuzatiladiki, ular bilan bir vaqtning o'zida birdan ortiq denotat ifodalangani va ma'nolardan qaysi biri bosh yoki hosila ma'no ekanligini anglash mushkul bo'lib qoladi. Misol sifatida [olma] leksemasining ikkita ["daraxt", "meva"],

[til] so'zining ikkita ["a'zo", "aloqa vositasi"] ma'nosini ko'rsatishning o'zi yetarli. Tilshunoslikda ba'zan ular ko'chma ma'no, ba'zan har ikkalasi ham nominativ ma'no sifatida baholanadi. Shunday bo'lsa-da, hosila ma'nolar asosidagi denotatlarning o'z xususiy atamalariga ega emasligi, shuningdek, so'zning shu ma'nolar asosida lisoniy tizimdan o'ziga xos o'rin egallashlari ularning sof lisoniy hodisa sifatida qaralishiga asos bo'ladi."

Lisoniylashgan ma'nolarning ayrimlari qo'llanish va ijtimoiylik nuqtai nazaridan bosh ma'nolardan ham o'tib ketadi va ularni o'z soyasida qoldiradi. Biz yuqorida izohlagan quralay, tullak, megajin, o'q so'zlarining metaforik ma'nolari lisoniylashishning yuqori darajada ekanligi bilan e'tiborlidir.

Ba'zi mualliflar hosila ma'noning lisoniylashuvini boshqacharoq talqin qiladilar: "Sof nutqiy hosila ma'nolarning lisonga intilishini ochish ham qator ijtimoiy-lisoniy omillarga tayanadi. Aytilganlardan kelib chiqqan holda, hosila ma'nolarning lison va nutqqa munosabati jihatidan quyidagi tasnifini berish mumkin:

- 1) lisoniylashgan va hosilaviylikni yo'qotgan ma'no;
- 2) lisoniylashgan hosila ma'no;
- 3) lisoniylashayotgan hosila ma'no;
- 4) nutqiy hosila ma'no.

So'zlarning umumiy lisoniy qiymatini tiklash bilan birgalikda ularning leksikografik tavsifini berish va zamonaviy izohli lug'atlar yaratishda ham ko'p ma'nolilikning lison va nutqqa munosabatini aniq va qat'iy belgilab olish muhim ilmiy-metodologik ahamiyatga ega".

**Tahlil va natijalar.** Ingliz tilida metaforalarning lisoniylashish jarayonini tubandagi misollar yordamida talqin etishga intilimiz:

Endi Ingliz tilidan metaforalar qatnashgan misollarni ko'rib chiqamiz:

1. "In the bed of the river, there were pebbles and boulders, dry and write in the sun, and the water was clear and swiftly moving and blue in the channels".

"Daryoning to'shagida tosh va toshlar bor edi, ular quyoshda quruq va yoziladi, suv aniq va tez harakatlanayotgan va kanallarda ko'k edi".

Bu jumlada 'the bed of the river' 'daryoning to'shagi' metafora. Chunki "to'shak" so'zi mebelning bir parchasi bo'lib, Xeminguey bu so'zni daryo uchun ishlatgan bo'lib, "daryo tubi" degan ma'noni anglatadi.

Daryoning to'shagida so'zida lisoniylashgan hosila ma'no bor.

Troops went by the house and down the road and the dust they raised powdered the leaves of the trees.

Qo'shinlar uying yonidan o'tib, yo'lni bosib o'tdilar va ular ko'targan chang-to'zon daraxtlarning barglarini changlatdi.

"Dust" "Chang" so'zi "chang" uchun ishlatiladi va men uni metafora deb bilaman. Bu "shaxslashtirish", chunki "chang" hech qanday harakat qila olmaydi. Ammo yozuvchi shaxs sifatida foydalangan. Demak ushbu gapda qo'llangan metafora nutqiy xosila manoga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

The trunks of the trees too were dusty and the leaves fell early that year and we saw the troops marching along the road and the dust rising and leaves, stirred by the breeze, falling and the soldiers marching and afterwards the road bare and white except for the leaves".

Daraxtlarning tanasi ham chang-to'zon bo'lib, barglari o'sha yil erta to'kilgan edi. Biz qo'shnilarning yo'l bo'ylab yurganini, chang ko'tarilganini va barglarni ko'rdik shabada bilan qo'zg'lib yiqilib tushdi va askarlar ketayotganini va keyin barglardan tashqari yalang'och va oq yo'lni ko'rdik.

Ushbu jumlada "bare" hech kim va hech narsa bo'lmagan yo'l uchun ishlatiladigan "yalang'och" so'zi. "Yalang'och"ning haqiqiy ma'nosi "without clothing, covering, protection, or decoration". "kiyimsiz, qoplamasiz, himoyasiz va bezaksizdir". Ammo biz "bare road" "yalang'och yo'l" deymiz, ma'no the road without anybody or anything on". "hech kimsiz va hech narsasiz yo'l".

Qo'yida berilgan jumladagi "road bare" (yalang'och yo'l) metaforasi lisoniylashgan hosila ma'no ifodalaydi.

The vineyards were thin and bare- branched too and all the country wet and brown and dead with the autumn".

In this sentence there are two metaphors "bare - branched" and "dead". The writer wrote about vineyards "bare - branched" as he wanted to write "vineyards were without leaves".

Uzumzorlar ham nozik va yalang'och shoxli edi. Butun mamlakat ho'l va jigarrang va kuz bilan o'lik edi.

Ushbu jumla ichida "yalang'och – shoxlangan" va "dead". "o'lik" ikkita metafora mavjud. Yozuvchi "uzumzorlar bargsiz edi" deb yozmoqchi bo'lgani uchun "yalang'och – shoxli" uzumzorlar haqida yozgan. Ko'rinadiki, bu gapda berilgan metafora lisoniylashayotgan hosila ma'no ifodalaganligini anglash mumkin.

At the foot of the bed was my flat trunk, and my winter boots, the leather shiny with oil, were on the trunk.

Choyshabning tagida mening yassi sandiq, bagajda esa yog'i yaltirab turgan qishki etiklarim turadi

Ushbu jumlada "foot" "oyoq" so'zi metaforadir. Bu so'z animatsion jismlar tanasining qismidir. Bu erda u "bed" "to'shak" uchun ishlatiladi. Shuning uchun ham bu shaxslashtirishdir.

They were top – heavy blunt- nosed ambulances, painted grey and built like moving –vans.

Ular kul rangga bo'yalgan va xuddi shunday qurilgan eng og'ir tez yordam mashinalari edi.

Ushbu jumlada "blunt - nosed" "ochiq – burunli" so'zi metafora bo'lib bu so'z animatsion mavjud mavjudoti yuzining bir qismidir. Bu gapda ushbu metafora "tez yordam mashinalari" ma'nosiga ega bo'lib, shu sababli lisoniylashgan va hosilaviyligini yo'qotgan ma'noga ega metafora hisoblanadi.

**Xulosa va takliflar.** Umuman olganda, ingliz va o'zbek tillarida metaforik terminlarning lisoniy tasnifini yoritib berish jarayonida lisoniylashgan va hosilaviyligini yo'qotgan ma'no, lisoniylashgan hosila ma'no, lisoniylashayotgan hosila ma'no, va nutqiy hosila ma'nolarini ifodalanishda ko'p ma'nolilikning lison va nutqqa munosabatini belgilab berishda asosiy ahamiyat kasb etadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Сайфуллаева Р.Р., Менглиев Б.Р., Бокиева Г.Х., Курбонова М.М., Юнусова З.Қ., Абузалова М.Қ. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Фан ва технологиялар, 2006.
2. Нейматов Х., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993.
3. Мусулмонова Н.Р. Грамматик шаклларда категориал, ёндош ва ҳамроҳ маъно (замон ва майл категориялари мисолида): Филол. фанлари номзоди ... дисс. – Қарши, 2007.
4. Щерба Л.В. Избранные работы по языкознанию и фонетике. Т. I. –Л., 1958.
5. Содикова М. Сифат. Ўзбек тили грамматикаси, икки томлик, 1-том. -Тошкент: Фан, 1976; Ғиёсов С. Ўзбек тилида субъектив баҳо сифатларининг семик таҳлили. - Тошкент: Ўзбек тили ва адабиёти, 1986. – № 2;
6. Ғиясов С. Семантическая структура и компонентный анализ качественных прилагательных узбекского языка: Автореф. дисс. канд. филол. ... наук. – Ташкент, 1983.
7. Миртожиев М. Ўзбек тили семасиологияси. – Тошкент: Мумтоз сўз, 2010.
8. Кубрякова Е.С. Эволюция лингвистических идей во второй половине XX века (опыт парадигмального анализа). Язык и наука конца XX века. – М.: Российская академия наук. Институт языкознания РАН, РГГУ, 1995.
9. Суярова Н.Ю. Эрнест Хемингуэй асарларида метафораларнинг қўлланилиши // «Компаративистиканинг долзарб масалалари» мавзусидаги республика илмий-амалий анжумани материаллари. – Фарғона, 2018.